

Yuridik shaxslarni gaz tarmoqlariga ulash va tabiiy gazdan foydalanish bo'yicha shartnoma tuzish

TARTIBI

Texnik shart olish tartibi:

Yuridik tashkilotlar ishlab chiqarish va bino inoshotlarini gazlashtirish uchun Davlat xizmatlari markaziga gazlashtirish bo'yicha texnik shart olishlari uchun ariza bilan murojaat qilishadi.

Yuridik shaxslarni texnik shart olish tartibi **O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 31 martdagi "muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulanish bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatishning ma'muriy reglamentlarini tasdiqlash to'g'risida" gi 256-son qaroriga** asosan Davlat xizmatlari orqali amalga oshiriladi.

Yuridik shaxslarga texnik shartlarni Davlat xizmatlari orqali berilishining joriy qilishdan asosiy maqsad – davlat xizmatlari ko'rsatishda yuridik shaxslarning bevosita ishtirok etishini talab qiladigan tartibotlar sonini hamda ularni ko'rsatish muddatlarini qisqartirish, yuridik shaxslardan boshqa davlat organlari va boshqa tashkilotlardan olinadigan hujjatlar va ma'lumotlar talab qilinishini bekor qilish, davlat xizmatlari ko'rsatishda byurokratik to'siq va g'ovlarga yo'l qo'ymaslik, davlat organlari va boshqa tashkilotlar o'rtasida o'zaro yaqin idoralararo elektron hamkorlik o'rnatish, yuridik shaxslarning faoliyati samaradorligini, tezkorligini va shaffofligini ta'minlash, ularning mas'uliyatini va ijro intizomini kuchaytirish hisoblanadi.

Mazkur qarorning 2-ilovasiga asosan 2018 yil 1 apreldan boshlab Yuridik va jismoniy shaxslarni gaz tarmoqlariga ulash bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatishning ma'muriy reglament tasdiqlangan.

Mazkur reglamentga asosan hududiy gaz ta'minoti korxonasi Davlat xizmatlari orqali kelibtushgan yuridik shaxsning murojaatiga asosan 3 kunlik muddat ichida texnik shartlarni ishlab chiqadi. Hududiy gaz ta'minoti tashkiloti gaz ta'minoti qurilishining loyiha-smeta hujjatlarini ko'rib chiqish va kelishish jarayoni bilan bir vaqtda texnik shartlarga muvofiqligini ko'rib chiqadi va kelishadi.

Yuridik shaxs tomonidan Davlat xizmatlari orqali texnik shart qabul qilib olinganidan keyin, ushbu texnik shart asosida (iste'molchining ixtiyoriga ko'ra) loyihalash, qurilish-montaj va sozlash-ishga tushirish ishlarini amalga oshiradi.

Shundan keyin yuridik shaxs, olingan loyiha-texnik hujjatlariga asosan o'ziga qarashli bino-inshoatni gazlashtirish ishlarini hududiy gaz ta'minoti tashkiloti yordamida yoki maxsus litsenziyaga ega bo'lgan qurilish-montaj tashkilotiga murojaat qilgan va belgilangan tarixda pudrat shartnomasini tuzgan holda qurilish-montaj ishlarini amalga oshiradi.

Qurilish-montaj ishlari yakunlangach, ushbu ob'ektning gaz quvurlarida zichlikka va bosimga sinash ishlari o'tkazilganidan keyin, hududiy gaz ta'minoti korxonasi tomonidan mazkur ob'ekt Ishchi komissiya ishtirokida qabul qilib olinadi. Bu haqda ishchi komissiyaning dalolatnomasi rasmiylashtiriladi.

Gazlashtirilgan ob'ektga gaz ochish va uni keyinchalik tabiiy gaz bilan ta'minlash masalalari **O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Elektr energiyasi va tabiiy gazdan foydalanish tartibini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 22-sonli qarori 2-ilovasi bilan tasdiqlangan "Tabiiy gazdan foydalanish qoidalari"** (*keyingi o'rinlarda – Qoida deb yuritiladi*)ga asosan amalga oshiriladi.

Xususan, Qoida talablariga ko'ra gazdan foydalanish uskunasini ko'rikdan o'tkazish va tabiiy gaz uzatishga ruxsatnoma berish iste'molchining arizasi tushgan kundan boshlab, 10 ish kuni mobaynida gaz ta'minoti tashkiloti tomonidan amalga oshiriladi.

Ob'ektni ko'rikdan o'tkazish uchun iste'molchi gaz ta'minoti tashkilotiga loyiha va ijro-texnik hujjatlariga berilgan quyidagi ruxsatnomalarni taqdim etishi kerak:

"Sanoat xavfsizligi Davlat qo'mitasi" tomonidan ishga tushirish-sozlash ishlarini o'tkazish uchun berilgan ruxsatnoma va "O'zneftgazinspeksiya" hududiy bo'limining qo'llaniladigan texnologiyalar va asbob-uskunalarning energiya jihatidan samaradorlik ko'rsatkichlariga muvofiqligi hamda yoqilg'ining muqobil turlaridan foydalanish to'g'risida xulosasi.

"Sanoat xavfsizligi Davlat qo'mitasi" ruxsatnomasisiz va «O'zneftgazinspeksiya» hududiy bo'limining xulosasisiz gaz sarflovchi uskunalarga tabiiy gaz yetkazib berish taqiqlanadi.

Hududiy gaz ta'minoti tashkiloti yangidan qurilgan, rekonstruksiya qilingan yoki texnik jihatdan qayta jihozlangan gazdan foydalanish uskunasiga, gaz quvurlari va uskunalarga tabiiy gaz gazdan foydalanish uskunasini ko'rikdan o'tkazish va tabiiy gaz uzatishga ruxsatnoma olish to'g'risidagi talablari bajarilgan taqdirda uzatiladi.

Qoidaning yuqorida keltirilgan barcha talablar bajarilganidan keyin ishga tushirish-sozlash ishlari va rejim sozlash ishlarini amalga oshirish uchun ko'rsatilgan hajmda gaz berilishini ta'minlash yuzasidan yetkazib beruvchi va iste'molchi o'rtasida tabiiy gaz yetkazib berish shartnomasi tuziladi.

Iste'molchi rejim-sozlash ishlari tugallangach, bajarilgan ishlarning sifatini baholash uchun «O'zneftgazinspeksiya»ning hududiy bo'linmasiga yozma shaklda murojaat qilishi va texnik hisobotni ilova qilishi mumkin.

Bajarilgan sozlash ishlarining sifati past bo'lgan taqdirda «O'zneftgazinspeksiya» hududiy bo'linmalarining ko'rsatmasiga asosan sozlash ishlarini bajargan tashkilot hisobidan gazdan foydalanish uskunasini takroran sozlanadi.

Shartnoma tuzish tartibi:

Yuridik iste'molchilarga tabiiy gaz "Tabiiy gazni yetkazib berish va qabul qilish to'g'risida"gi (**ilovada keltirilgan**) shartnomaga asosan yetkazib beriladi.

Shartnoma tuzishda yuridik shaxslar hududiy gaz ta'minoti tashkilotlariga ariza orqali murojaat qilinadi. Murojaatga asosan korxonadagi tabiiy gazdan foydalanuvchi gaz anjomlari soni va turi, elektron gaz hisoblash uskunasi turi va zavod raqami, tadbirkorlik sub'ektiga berilgan guvoxnoma nusxasi, loyiha-texnik hujjatlari, bank rekvizitlari va pochta manzillari to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etadi.

Shuningdek, Qoida talablariga muvofiq iste'molchilar (maishiy iste'molchilardan tashqari), shu jumladan oilaviy korxonalar har yili 15 iyulgacha bo'lgan muddatda gaz ta'minoti tashkilotiga choraklar bo'yicha (qish davri uchun — oylar bo'yicha) taqsimlanadigan kelgusi yilgi tabiiy gaz iste'molining prognoz qilinayotgan hajmi uchun buyurtma beradi.

Tabiiy gazni yetkazib berish shartnomasida gazdan foydalanish uskunalari va tabiiy gaz iste'molini hisobga olish priborlariga texnik xizmat ko'rsatish davriyligi va tartibi qonun hujjatlari talablari va texnik hujjatlarga muvofiq ko'rsatilishi shart.

Tabiiy gazni yetkazib berish bo'yicha shartnoma 2 nusxada, taraflarning har biri uchun bir nusxadan tuziladi.

Budjet tashkilotlari bilan tuziladigan shartnomalar belgilangan tartibda G'aznachilik bo'limlariga majburiy ro'yhatdan o'tkazilishi shart.
Asos: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 28 fevraldagi "Davlat budjetining g'azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-594-son qarori, O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi O'RQ-684-son Qonuni.